

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**KIMYO-TEXNIKA FAKULTETI**

**«QURILISH VA ARXITEKTURA» KAFEDRASI**

**DIPLOM LOYIHASI BO`YICHA**

***(Binolarni loyihalash bo'yicha)***

**T U S H U N T I R I S H X A T I**

Diplom loyihasining mavzusi: ***Urganch shahriga mo'ljallangan loyiha uyi  
binosini loyihalash .***

Bitiruvchi 501-arx guruh talabasi: ***Ro`zmetov Imomaddin***

Kafedra mudiri: ***dots. Raxmanov B.S.***

Diplom loyihasi rahbari: ***o'qit. Atamurodov.A***

**Maslahatchilar:**

|   |                                                  |                            |
|---|--------------------------------------------------|----------------------------|
| 1 | Arxitektura qismi                                | <i>o'qit. Atamurodov.A</i> |
| 2 | Konstruktiv qism                                 | <i>dots. Sobirov B.X.</i>  |
| 3 | Iqtisodiyot qismi                                | <i>dots.Sobirov.M.K</i>    |
| 4 | Qurilish texnologiyasini<br>tashkil qilish qismi | <i>dots.Sobirov.M.K</i>    |
| 5 | Mehnat va atrof muhit<br>muhofazasi qismi        | <i>dots. Axmedov.Q.Q</i>   |

Urganch - 2015 yil

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**KIMYO-TEXNIKA FAKULTETI**

**«QURILISH VA ARXITEKTURA» KAFEDRASI**

**DIPLOM LOYIHASINI BAJARISH BO'YICHA**

***(Binolarni loyihalash bo'yicha)***

**T O P S H I R I Q**

**Ro`zmetov Imomaddin Yaqubboyevich**

(talabaning familiyasi, ismi-sharifi)

**1. Diplom loyihasining mavzusi:** *Urganch shahriga mo'ljallangan loyiha uyi binosini loyihalash .*

UrDU bo'yicha 2014 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ - son buyruq bilan tasdiqlangan.

**2. Diplom loyihasini bajarish uchun ma'lumotlar:** Binoni joylashtirish bo'yicha holat tarhi M-1 :2000,\_\_\_\_\_

**3. Tushuntirish xatida keltiriladigan ma'lumotlar** (70-80 varaq A4 formatda qo'lyozma tarzida yoki 40-50 varaq kompyuterda yozilgan matnlar):

**a) Arxitektura qismi bo'yicha:** Holat tarhi, bosh reja, binoning arxitekturaviy-rejalashtirish yechimi, arxitekturaviy kompozitsiya, xulosa.

**b) Konstruktiv qism bo'yicha:** Binoning konstruktiv uzeli (ayrim olingan bir qismi), devorlar, tom yopma qismi, poydevor qismi, balka, ustun, rigel va hokazolar hajmi maslahatchi tomonidan belgilanadi) hisoblanadi va loyihalanadi.

**v) Mehnat va atrof muhit muhofazasi qismi bo'yicha:** Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha topshiriq bitiruv malakaviy ishida loyihalanayotgan ob'yektning joylashgan o'rniga, ishlab – chiqarish yoki xizmat ko'rsatishning turiga, ishlab chiqarishning aniq spetsifik holatiga yondashgan holda beriladi. Bu bo'limni bajarishda quyidagilarga e'tibor qaratish muhimdir:

*Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha texnik yechimlar loyiha hujjatlarida to'g'ri hal qilinishiga va loyihada sanitar – maishiy xonalar, yong'in xavfsizligi qurilmalari to'g'ri qabul qilingan va ishlab chiqarish jarayonida mehnatni muhofaza qilishning:*

*a) mehnatni muhofaza qilishning qonuniy asoslari, xavfsiz va sog'lom ish sharoitlarini tashkil qilish, mehnat sharoitini yaratishga;*

*v) ishlab – chiqarish sanitariyasi va gigiyenasi qoidalariga;*

*s) xavfsizlik texnikasining barcha masalalariga;*

*d) ishlab – chiqarishda yong'inga qarshi kurash chora tadbirlariga keng e'tibor qaratish va yong'in paytida odamlarni evakuatsiya qilish masalalarini hal qilish lozimdir.*

**g) Qurilish texnologiyasini tashkil qilish qismi bo'yicha:** Loyihalanayotgan ob'yektning QURILISH-montaj ishlarini tashkil qilish va QURILISH ishlarini bajarish texnologiyasini o'z ichiga oladi. QURILISH-montaj ishlarining nomenklaturasi, ish hajmi, mehnat xarajatlari, mashina vaqti sarfi, QURILISH-montaj ishlarini bajarish bo'yicha ko'rsatmalar, ishlarni bajarish ketma-ketligi asosida kalendar reja ishlab chiqishdan iborat.

**d) Iqtisodiyot qismi:** Ob'yektni qurish uchun zarur bo'lgan:

*a) ish xaqi xarajatlari;*

*v) mashina - mexanizmlar xarajatlari;*

*s) asosiy QURILISH materiallari va konstruksiyalariga qilinganl xarajatlarni;*

d) uskuna va jihozlarga qilingan xarajatlarni hisoblab, ob`yektning umumiy smeta baxosini va QURILISH – montaj ishlari baxosini aniqlashdan iboratdir. Buning natijasida QURILISH uchun sarflangan mablag`ning iqtisodiy samaradorligini hisoblash maqsadga muvofiqdir. Yuqoridagi ishlarni «UzdavarxitekQURILISH» tomonidan ishlab chiqilgan va 2005 yildan ishlab chiqarishga joriy qilingan «Kurkiymatasos» - 2005 kompyuter dasturi yordamida bajarish ham mumkin.

**e) Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:** Adabiyotlar ro`yxati –o`rganilgan chizmalar, tasvirlar, adabiyotlar, me`yoriy hujjatlar, ilmiy maqolalar, boshqa manbalardan to`plangan ma`lumotlar To`la tahlil qilinadi. Ulardan olingan ma`lumotlarni lo`nda qilib ifodalash zarur. Talaba yozayotganda Internet saydlaridan, o`zi tuzgan manbalar kartotekasidan foydalanadi.

**j) Mundarija:** Diplom loyiha ishining ketma-ketligi ko`rsatiladi unda mumkin qadar ishning bajarilish tartibi aks etishi lozim.

**4. Diplom loyihasining chizmalari ro`yxati (80 x 90sm formatda 4 list doskada yoki maketi bo`lishi kerak):**

**a) Arxitektura chizmalari:** Holat tarhi, shamol guli, bosh reja, binoning qavatlar tarhi, binoning asosiy tarzi, yon tarz, umumiy ko`rinishi (perespektiva), xona inter`eri, qirkimi va qaydnomada xonaning hajmi kv.m. aks etgan bo`lishi kerak.

**b) Konstruksiya chizmasi:** Vaman qog`ozda konstruksiya qismi (maslahatchi tomonidan berilgan topshiriq asosida) loyihalanadi

**v) Qurilish texnologiyasini tashkil qilish qismi bo`yicha:** binoning qurilib bitkazilish muddatini belgilovchi kalendar grafik chizmasi millimetr katak shaklidagi qog`ozda chiziladi.

**5. Diplom loyihasi qismlari bo`yicha maslahatchilar:**

| № | Diplom loyihasining qismlari           | Boshla-nish muddati | Tugalla-nish muddati | Imzo | Maslahatchining familiyasi |
|---|----------------------------------------|---------------------|----------------------|------|----------------------------|
| 1 | Arxitektura qismi                      |                     |                      |      | Atamurodov.A               |
| 2 | Konstruktiv qismi                      |                     |                      |      | Sobirov B.X.               |
| 3 | Mehnat va atrof muhit muhofazasi qismi |                     |                      |      | Ahmedov Q.Q                |
| 4 | Qurilish texnologiyasini               |                     |                      |      | Sobirov M.Q.               |

|   |                      |  |  |  |              |
|---|----------------------|--|--|--|--------------|
|   | tashkil qilish qismi |  |  |  |              |
| 5 | Iqtisodiyot qismi    |  |  |  | Sobirov M.Q. |

**Izoh:** \* - Diplom loyihasi rahbarining taklifiga binoan, mutaxassis chiqaruvchi kafedra loyihaga rahbarlik qilishga ajratilgan vaqt limiti hisobidan loyihaning ayrim bo'limlari bo'yicha maslahatchilarni taklif etishi mumkin.

**6. Topshiriq berilgan sana**\_\_\_\_\_

**7. Tugallangan diplom loyihasini topshirish sanasi**\_\_\_\_\_

Diplom loyihasi rahbari \_\_\_\_\_(imzo)

Topshiriq bajarish uchun qabul qilindi \_\_\_\_\_(imzo)

Kafedra mudiri\_\_\_\_\_ (imzo)

## MUNDARIJA

### 1. KIRISH.

\_\_\_\_\_BET

### 2. ARXITEKTURA QISMI

\_\_\_\_\_BET

### 3. KONSTRUKSIYA QISMI

\_\_\_\_\_BET

### 4. QURILISH TEXNOLOGIYASINI

TASHKIL ETISH QISMI

\_\_\_\_\_BET

5. IQTISODIYO TI QISMI

\_\_\_\_\_BET

6. MEHNAT VA ATROF MUHIT

MUHOFAZASI QISMI

\_\_\_\_\_BET

7. XULOSA

\_\_\_\_\_BET

8. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

\_\_\_\_\_BET

Arxitektura qadimdan ma'lum funksional vazifalarga xizmat qilishidan tashqari, jamiyatda mavjud g'oyalarni tashkil ettirishga davlat, jamoat va aholi ehtiyojlarini qondirishga intilgan. Bobokalonimiz Sohibqiron Amir Temurning "Agar bizning donoligimiz va shon-shuhratimizdan shubhang bo'lsa, barpo etgan binolarimizga boq!" degan mashhur so'zlarini eslatish kifoya. Samarqanddagi Registon maydoni Buxoro-yu Xorazmdagi Ichon qal'aga tashrif buyurgan har bir kimsa, kim bo'lishidan qat'iy nazar, osmon o'par minora va koshinkor peshtoqlarga tikilganda, xayolidan mazkur obidalarni qurgan me'mor va ustalarning mahorati, ularni qurishga buyurgan hukmdorlarning qudrati va shon shavkati to'g'risida fikrlar o'tishi shubhasizdir. (1)

Mustaqillikka erishilgandan keyin tarixda birinchi marotaba 1995-yilda "Arxitektura va shaharsozlik" bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunni amalga oshirish va bajarish jarayonida ko'p sohaviy imkoniyatlar paydo bo'ldi va shu asosda tarixni, madaniy boyliklarni, iqlimni, zilzila va ,umuman, hududimizga xos bo'lgan holatlarni e'tiborga olgan holda 148 ta milliy-davlat "Qurilish me'yorlari va qoidalari" (KMK) ishlab chiqildi. Ta'kidlash joizki, mustaqillikning birinchi yilidan va ,ayniqsa, oxirgi yillarda shaharsozlik sohasiga e'tibor kuchayib kelmoqda.

Shaharsozlik sohasiga tegishli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «O'zbekiston Respublikasida arxitektura va shahar qurilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni (2000-yil 26-aprel 2595-sonli), Vazirlar Mahkamasining «Arxitektura va qurilish sohasidagi ishlarni tashkil etish va nazoratni takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida» (2000-yil 27-aprel,165-sonli), «Shaharlar, tuman markazlari va shahar tipidagi posyolkalarning bosh rejalarini ishlab chiqish va ularni qurish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida» (2000-yil 14-avgust 320-sonli),

«Arxitektura va shaharsozlik sohasidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishi uchun rahbarlar va mansabdor shaxslarning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari (2000-yil 23-avgust 329-sonli) fikrimiz dalilidir.

(2)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida arxitektura va shahar qurilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni hamda ushbu farmon ijrosi yuzasidan Vazirlar Mahkamasining "Arxitektura va qurilish sohasidagi ishlarni tashkil etish va nazoratni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "Shaharlar, tuman markazlari va shahar tipidagi posyolkalarning bosh rejalarini ishlab chiqish va ularni qurish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi, "Arxitektura va shaharsozlik sohasidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishi uchun rahbarlar va mansabdor shaxslarning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari qabul qilingan bo'lib uning ijrosini ta'minlash borasida Davlat hokimiyati organlariga aholi punktlarini shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqilishini tashkil etish, bosh rejaga, batafsil rejalashtirish va qurilish loyihalariga rioya qilinishi, hududlarda yer ajratilishida qonun talablariga rioya etilishi, ob'yektlarni joylashtirishda bosh reja muallifi bilan kelishish, navbatchi bosh rejaning yuritilishi va joylarda "Arxitektura va shaharsozlik kengashlarning ish faoliyatlari tizimi yaratildi.

Bu borada, shaharsozlik sohasi faoliyatini rivojlantirishda 2002-yilda amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasining shaharsozlik kodeksini ahamiyati ham juda katta bo'ldi.



2008-yilda qurilish sohasida juda katta o'zgarishlar ro'y berdi. Shaharsozlik faoliyatini yanada takomillashtirish yo'lida bir qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

2) T.Qodirova. O'zbekistonning istiqbol yillari me'morchiligi. 68-71 b.

Shular bilan bir qatorda, shahar qurilishida tegishli tartib o'rnatish va ularning uzoq istiqbolga mo'ljallangan kompleks rekonstruksiya qilinishini ta'minlash, shahar markazlari va arxitektura komplekslari qurilishi bosh rejalarida shaharlarning transport magistralari va ko'cha-yo'l tarmoqlarini kompleks rivojlantirish bo'yicha qabul qilinadigan loyihalar sifatini oshirish, shuningdek shaharsozlik kodeksi talablariga, shahar qurilishining tasdiqlangan norma va qoidalariga rioya etilishi uchun mas'uliyatni kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 26-aprelda "Shaharlarda yo'l qurilishni takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-62 sonli hamda joylarda aholi punktlarini qurishda qarorlar qabul qilishda aholi punktlarini istiqbolga mo'ljallangan butun infratuzilmasini, ya'ni jamoa markazlari, turar joy muhiti, ko'cha-yo'l tarmog'i, tarixiy madaniy meros ob'yektlari, aholi yashash sharoiti va ekologiya muhitini rivojlantirish masalalari yechimi hisobga olinib shaharsozlik hujjatlarini belgilangan muddatlarda ishlab chiqishni ta'minlash borasida 2005-yil 30-avgustda "Shaharlar, shahar posyolkalari va qishloq aholi punktlari bosh rejalarini tatbiq etish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-165 sonli qarorlari qabul qilinganligi hammamizga ma'lum.

Bu ikkita qaror bir-biriga chambarchas uzviy bog'langan bo'lib qo'mitaning va uning hududiy organlarining olib borayotgan ishlarida hamda Davlat hokimiyati organlarining shaharsozlik faoliyati sohasi yuzasidan olib borayotgan ishlarida ma'suliyat bilan yondashishni talab etadi.

Xorazm viloyati O'zbekiston Respublikasining shimoliy g'arbida joylashgan. Yer maydoni 6,1 ming kv km ni tashkil etadi va O'zbekiston hududining 1,4 foizini egallaydi. Mavjud aholi soni 2008 yil 1 iyul holatiga 1518 ming kishiga teng bo'lib, zichligi 1 kv km ga 249 kishidan to'g'ri keladi. Aholining 21,9 foizi shaharda, 78,1 foizi qishloqda yashaydi.

Viloyat geografik o'rniga ko'ra  $40^{\circ}$ - $31^{\circ}$  va  $42^{\circ}$  shimoliy kengliklar  $60^{\circ}$ - $62^{\circ}$  sharqiy uzunliklar oralig'ida joylashgan. Hududi shimoliy-g'arbdan janubiy-sharqqa 280 km, Urganch shahri joylashgan kenglikda g'arbdan sharqqa 80 km atrofida cho'zilgan. Viloyatning eng shimoliy chekka nuqtasi Gurlan tumani Olchin qishlog'i yaqinidagi Nuronbobo to'qayiga to'g'ri keladi. Janubiy chekka nuqtasi esa Tupraqqal'adan bir muncha janubda joylashgan. (3)

Xorazmning boy ko'p qirrali tarixi qadim zamonlardan buyon xorijiy va yurtdosh olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib keladi. Viloyat hududida ko'plab tarixiy yodgorliklar mavjud. Ayniqsa, Xiva shahridagi me'moriy obidalar bugun dunyo ahlining e'tiborini tortib kelmoqda. Bu yerda Ark, Kaltaminor, Pahlavon Mahmud maqbarasi, Dishanqal'a yodgorliklari alohida ajralib turadi. Xivadagi Ichanka'la yodgorlik majmuyi esa YuNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Sharq durdonasi bo'lgan qadimiy Xiva shahrining 2500 yilligi 1997 yilda xalqaro miqyosda keng nishonlandi.

Xorazm viloyatining tabiiy iqlim sharoitlariga tayangan holda paxta, sholi, bug'doy yetishtirishga ixtisoslashtirilganligi, asosan, zamonaviy qishloq va shahar aholi joylashuvini shakllantirishni belgilaydi. Shunga ko'ra, eski shudgor qilingan paxta ekiladigan maydonlarda tashkil bo'lgan aholi hududlarida aholining zich joylashuvi paydo bo'lgan. Yangi paydo bo'ladigan qishloq aholi hududlarida esa, o'ziga xos aholi joylashuv turlari paydo bo'ladi.

Natijada uy-joy rejasini hal qilish, oilalarning oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'z-o'zini ta'minlashlarini yaxshilash, bozorlarni to'ldirish, aholini ish bilan ta'minlashni kuchaytirish kabi bir qancha hayotiy muhim ijtimoiy vazifalar bir-biriga bog'liq holda hal etilmoqda.

Xorazm viloyatida yuqoridagi qonun va qarorlar asosida shaharlarda nafaqat shaharlarda balki qishloqlarda ham qurilish ishlari jadal sur'atlarda olib borilmoqda. Bugungi kunda Xorazm viloyati qurilish maydoni desak ham yanglishmaymiz.

3. Babiyevskiy K.V. «Tipologiya zdaniy» Tashkent -1986 g.

Loyihalanayotgan ob'yektlarni loyihasini poytaxtimizda emas o'zimizda loyihalanayotgani quvonarli yutuq hisoblanadi. Sababi viloyatimizda ham poytaxtimizdagi ko'zga ko'ringan loyiha tashkilotlaridan qolishmaydigan loyiha institutlarining mavjudligi va bu tashkilotlardagi mutaxassislarni saviyasi hech kimnikidan kam emasligi shu kunlarda yaqqol ifodasini topdi.

Hozirda viloyatimizda 60 dan ortiq loyiha tashkilotlari o'z faoliyatini olib borishmoqda. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, bu tashkilotlarning ko'pchiligi xususiy loyiha tashkiloti ekanligi yurtimizda barcha sohada bo'layotgani kabi arxitekturada ham xususiy korxonalarga keng shart sharoit yaratilib berilganini ko'rishimiz mumkin. Bu ham Xorazm arxitekturasini yanada rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Loyiha tashkilotlari o'rtasidagi raqobat bir-biridan hashamatli va ko'rkam binolarni loyihalanishini ta'minlab beradi. Loyiha institutlarining saviyasi va ularga bo'lgan talabning oshishi bu soha vakillari uchun shart-sharoit qulayliklar yaratilib berishni talab qiladi. Hozirgi rivojlangan mustaqil O'zbekistonimiz bosqichma-bosqich barcha sohalarni tubdan yangilab barcha sohalarga

zamonaviy texnika va uskunalarni joriy qilish bilan birga barcha soha xodimlari uchun zamonaviy shinam bino-inshootlarni qurib foydalanishga topshirish yoʻlida anchagina yutuqlarga erishdi desak yanglishmagan boʻlamiz. Shu qatorda arxitektura va qurilish sohasidagi mutaxassislariga ham qulay ish muhitini yaratilib berilishiga ham eʼtibor qaratilmoqda. Shu bois viloyatimizda “Loyihachilar uyi” loyihasini loyihalash mavzusi oʻrtaga tashlandi.

Hozirgi kunda kun sayin tobora rivojlanib borayotgan qurilish jarayoni qalbimizda faxr va gʻurur iftixorini gavdalantiradi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin barcha sohalarga berilgani kabi qurilish sohasiga ham jiddiy eʼtibor qaratilyapti hamda shu soha vakillarining oʻz faoliyatlarini toʻlaqonli ado etishlarida bir qancha xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Yurtboshimiz tomonidan arxitektor mutaxassislariga, quruvchi xodimlarga boʻlgan talabning nihoyatda katta ekanliklarini alohida taʼkidlaganlari ham bejiz emas. Shuningdek, shahar yoki tuman bosh arxitektori mansabi jihatidan shahar hokimi muovini darajasiga koʻtarilganining oʻziyoq arxitektorlarga boʻlgan talabning yuqoriligiga yana bir isbotdir.

Viloyatimiz markazini shu kunlarda qurilish ishlari avj nuqtaga chiqqan qurilish maydoni desak also mubolagʻa boʻlmaydi. Urganch shahrida inson aqlini lol qoldiradigan “Yoshlar koʻli”, Alʼ-Xorazmiy koʻchasining yangi qiyofa kasb etishi, Temiryoʻl vokzali hamda Urganch Aeraporti yangidan taʼmirlandi. Yaqinda Urganch shahrida boʻlib oʻtgan Respublika Bosh Vaziri oʻrinbosari B.Zokirov bilan boʻlib oʻtgan uchrashuvda, shu shaxs tomonidan oʻrtaga tashlangan taklif asosida Viloyatimiz markazida arxitektor-quruvchi xodimlar uchun alohida loyihachilar uyi majmuasini loyihalash taklifi oʻrtaga tashlandi. Bu taklifga koʻra arxitektor alohida binoda ijod qilib, faoliyat koʻrsatib, yangi loyihalar ustida qizgʻin ish olib borishi kerak. Men oʻz oldimga maqsad qilib, shu loyihachilar uyi binosini loyihalashni qoʻydim.



### **3.1. Asosiy adabiyotlar**

1. I.A.Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida». Toshkent 2000 y.
2. I.A.Karimov «O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li». Toshkent 2001 y.
3. KMK 2.07.01-94 «Shahar va qishloq manzilgohlarini rejalashtirish va qurish».
4. Arxitekturnoye proyektirovaniye obshestvennix zdaniy i soorujeniy. Moskva
5. «Arxitekturnaya kompozitsiya», Sbornik pod redaktsiey Kirillovoy L.I. i dr., M., Stroyizdat, 1970 g.
6. Burov A.K. «Ob arxitekture», Gosstroyizdat, 1974 g.
7. Lisitsinan M.V, Novikova E.B., Petunina Z.V. «Inter'er obshestvennix i jilix zdaniy», 1970 g.
8. Osnovi arxitekturnoy kompozitsii i proektirovaniya. Pod obsh. Red. A.A. Titsa, Kiyev, Visshaya shkola, 1976 g.
9. Ubaydullayev X.M. i drugiye «Jamoat binolari tipologiyasi». Toshkent 2000 y.

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan davrdan boshlab hukumatimiz tomonidan arxitektura va shaharsozlik sohasiga asosiy e'tibor berilib, shaharsozlik sohasi faoliyatida bir qator O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining ushbu soha yuzasidan qarorlari qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining hozirgi zamon rivojlanishi bosqichida arxitektura sohasida hech kimdan qolishmaydigan g'ururlansa arziydigan yutuqlarga erishgani hech kimga sir emas.

Kundan kunga rivojlanib borayotgan ilmiy-texnika taraqqiyoti esa, jamoat binolarini arxitekturaviy loyihalashning uslubiy, nazariy va ilmiy asoslarini o'rganmay turib, badiiy kompozitsiyani tushunmay turib yangi qurilish me'yorlarini bilmay turib loyihalash mumkin emasligini taqozo etadi.

Hozirgi kunda viloyatimizda loyiha tashkilotlari uchun alohida binoning yo'qligi borlari ham eskirib zamon talabiga javob bermaydigan holatga kelib qolgan ayrim loyiha tashkilotlari shahar yoki bo'lmasa tuman hokimiyati binosida ikkita yoki bo'lmasa shundan ko'proq xonalarda ish faoliyatini olib borishayotgani bugungi kunda Loyiha uyini loyihalash dolzarb ekanligini ko'rsatadi. Bu bilan loyiha tashkiloti mutaxassislariga qulay ish sharoiti yaratilib berilsa yana bir tomondan aholi uchun ham qulaylik yaratilgan bo'lar edi. Loyiha uyining loyihalaniishi viloyatimizda bu sohada yana bir qadam tashlagan hisoblanamiz. Sababi loyihalalanayotgan ob'yektlar shu soha vakillarining qo'lidan o'tishini inobatga olsak bu ham loyihalalanayotgan ishlarni yanada sifatli va yanada aniq bo'lishini ta'minlab beradi. Chunki aynan loyihaga ixtisoslashgan bino faqat loyiha ishlari bilan mashg'ul bo'lishi ish sifatini va unumdorligini oshiradi.

**Mavzuning maqsadi va vazifalari.** Mavzuning asosiy vazifasi bugungi kunda viloyatimizda loyiha tashkilotlariga qulay va shinam bino yaratib berish va amaliyotga tatbiq qilishdan iborat.

Asosiy ko`rilayotgan masala yuzasidan Respublikamizda amalga oshirilayotgan ishlar yangicha yondashuvlar, davlatimiz tomonidan olib borilayotgan chora tadbirlar, xorijiy tajribani o`rganish va ma'lumotlarni umumlashtirish asosida amalga oshirilgan ishlar bilan tanishish Xorazm iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda loyihalash zarurligi qishda qattiq sovuq yozda juda issiq bo`lishligini inobatga olish ilmiy ishning asosiy maqsadlaridan biridir.

**Mavzuning mohiyati va ob'yekti.** Asosiy masala loyiha uylari bugungi kun talabi va ehtiyoji uchun zarur holda loyihalangan loyiha uylarining yo`qligi. Shu bois hozirgi zamon talabini o`rgangan holda loyiha tashkilotlari bilan ham fikr va fikrlar almashini qanday usulda va qanday talablar asosida loyihalash maqsadga muvofiq bo`lishini aniqlash lozim. Shuning uchun tadqiqot ob'yekti sifatida mavjud loyiha uylari tanlab olinadi va takliflar ishlab chiqiladi. Loyiha uylarini zamonaviy qilib ta'mirlash kerak bo`lsa eskisi buzib tashlanib o`rniga yangidan qurilishi kerak bo`ladi. Barcha holatlarda asosiy maqsadi va mohiyati shundaki loyiha uylari bugungi kun talabiga to`la ravishda javob berishi kerak va shu natijaga erishish uchun taklif va loyihalar ishlab chiqiladi.

**Tadqiqot uslubi va uslubi** o`z ichiga loyiha uylarining me'yoriy hujjatlari, amaliy tekshiruvlar va ular asosida olingan natijalarni tahlil qilish, shu loyiha tashkilotiga tegishli bo`lgan tegishli bo`lgan bosh rejalarini o`rganish, ushbu loyiha uyining yechimini topish borasida loyihaviy takliflarni ishlab chiqish kabi masalalarni o`z ichiga oladi.

**Himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlar.** Loyiha uylari Respublika miqyosida ko`zga ko`ringan tashkilotlarni binolari hisoblanib bu loyiha uylarida 100 dan 1000 gacha xodimlar xizmat qilishadi. Bunday tashkilotlar loyiha



uylarini asosiy binosi butunlay bir o'zgacha bo'ladi. Bu mavzu barchani o'ziga jalb qilishi aniq. Sababi loyiha uyi deganda boshqa jamoat binolaridan ajralib turishi va bir qaragandayoq shu arxitektura binosi ekanini anglashimizga imkon yaratib beradigan qilib loyihalash kerak. Mavzuda katta bir loyiha tashkiloti uchun emas balki kichikroq tashkilot uchun mo'ljallangan Loyiha uyi hisoblanadi. Xorazm viloyati hududida loyiha uylari uchun zarur taklif loyiha ishlab chiqish ishlari olib boriladi.

**Mavzuning muhokamadan o'tkazilishi:** Xorazm viloyatining o'rganishda asosan Urganch shahridagi "Arxitektura va qurilish boshqarmalarida", UrDU "Qurilish va arxitektura" kafedrasining yig'ilishida muhokama qilingan. Tadqiqotning asosiy natijalari Toshkent arxitektura qurilish institutining "Arxitekturaviy loyihalash" kafedrasining kengaytirilgan yig'ilishida ma'ruza qilingan.

O'zbekistonning buyuk kelajagi me'morchiligiga aynan bugun poydevor qo'yilmoqda, kelajak me'morchiligi asoslari hozirgi avlodning ijodiy-bunyodkorlik mehnati bilan yuzaga keltirilmoqda. Xuddi shu boisdan ham O'zbekiston me'morchiligini rivojlantirishning tarixan yangi davri ijodiy yo'nalishini to'g'ri belgilab olish g'oyat muhim, yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek "maqsadga yetishning to'g'ri va oqilona yo'li va usulini tanlash maqsadni tanlashning o'zidan ming marta qiyin. (4) Mustaqillik ne'matlari bo'lmish o'zligimizni anglash, asliy va azaliy qadriyatlarimizni tiklash, ma'naviyatimiz asoslarini tushunib yetish jarayonlarida me'moriy obidalar-buyuk ajdodlarimiz, buyuk alloma va fozillar, sarkardalarning tabarruk nomlarini tiklanishi, ularga atab o'rnatilgan haykallar, ziyoratgoh majmualari, maydonlar va boshqa bunyodkorlik ishlari katta ahamiyat kasb etadi-ma'lum ma'noda ko'rgazmali qo'llanma rolini bajaradi va bajarmoqda.

Shu borada arxitektera sohasida erishilgan yutuqlar butun dunyoni lol qoldiradi desak yanglishmagan bo`lamiz. Loyiha uyini bugun bizga kerakligi zarurligi viloyatimiz uchun ahamiyatga ega ekanligini ko`rsatib berishimiz zarurdir.

4.I.A.Karimov. Ulug' maqsad sari oq'ishmay olg'a boraylik.-T., 1993,6b.

### **Loyiha uylarining klassifikatsiyasi va tiplari.**

Shu o'rinda Qadimiy Samarqand, ko'hna Buxoro, betakror Xiva, go'zal Shahrisabz, ulkan va navqiron Toshkent kabi shaharlarda ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib qolgan osori-atika majmualarini zavq-shavq bilan, g'urur va ehtirom bilan tomosha qilar ekanmiz, bu obidalarining necha asrlar davomida bunyod bo'lganligi ko'pchilikning xayoliga ham kelmaydi. Go'yo ular hozirgi ko'rinishlarida doimo mavjud bo'lganday. Aslida, ularni ajdodlarimizning ketma-ket o'tgan necha-necha avlodlari yaratganlar, sayqal berganlar. Shu ma'noda tarixan qisqa vaqtda, respublikamizning barcha go'shalarida qad ko'targan yirik me'morchilik obidalarini o'ta tezkorlik bilan, bunyodkorlikka tashna xalqimiz tomonidan yaratilganligini ta'kidlash o'ta maroqlidir. Loyiha uylari loyiha tashkilotining turiga qarab belgilanadi. Loyihaning turi asosan tashkilot yo'nalishini belgilaydi. Loyiha uyining tipi unda ishlovshi xodimlar sonidan kelib chiqib belgilanadi. Klassifikatsiya loyiha uyi binosini ariyentatsiyasini to'g'ri

tanlay bilishda ekanida. To'g'ri, har qanday bino va inshootni loyihalash jarayonida bu ariyentatsiyasi hisoblanadi. Lekin loyiha uylarini ariyentatsiya qilishda o'ziga xos yondashuv talab qiladi sababi bu loyihachilar xonasi yorug' bo'lishi kerak ekanli tabiiy yorug'likdan unumli foydalanish kerak ekanligini talab qiladi. Aynan shularni inobatga olgan holda loyiha uylarini xonalar tarkibini va joylashish ariyentatsiya aniqlab olishimiz mumkin. Shu borada aytish joizki, loyiha uyi arxitekturaviy jihatdan badiiy bir ko'rkam bino bo'lishi lozim.

Kafedra tomonidan menga bitiruv malakaviy ishim sifatida berilgan Urganch shahrida Loyihachilar uyi mavzumni Urganch shahri Istiqlol ko'chasiga loyihaladim. Ushbu loyihamga ajratilgan umumiy yer maydoni 1100m.kv. bo'lib, shundan qurilish osti maydoni 677m.kv.ni tashkil etadi.

Bu majmuam tarkibi quyidagilardan iborat:

- 1.Faye-55.9m.kv.
- 2.Yo'lak-95.2m.kv.
- 3.Kotiba xonasi-14.9m.kv.
- 4.Direktor xonasi-16.6m.kv.
- 5.Direktor o'rinbosari xonasi-15.4m.kv.
- 6.Buxgalteriya-8.2m.kv.
- 7.Arxiv-8.2m.kv.
- 8.Kadrlar bo'limi-8.3m.kv.
- 9.Bosh arxitektor xonasi-8.3m.kv.
- 10.Bosh muhandis xonasi-8.3m.kv.

- 11.Loyihachilar xonasi-25.9m.kv.
- 12.Ko'rgazmalar zali-147m.kv.
- 13.Majlislar zali-57.8m.kv.
- 14.Dam olish xonasi-22.6m.kv.
- 15.Anjomlar xonasi-22.6m.kv.
- 16.Omborxona-6.2m.kv.
- 17.Ishchilar xonasi-6.2m.kv.
- 18.Ovqat tayyorlash zali-34.3m.kv.
- 19.Idish yuvish xonasi-4.9m.kv.
- 20.Ovqatlanish zali-61.1m.kv.
- 21.Ayollar hojatxonasi-9.4m.kv.
- 22.Erkaklar hojatxonasi-9.4m.kv.
- 23.Ishchi-xizmatchilar xonasi-21.2m.kv.
- 24.Qorovulxona-9.1m.kv.

Men o'z loyihamni amalga oshirayotganda,albatta, zamonaviylik hamda me'morchilikning klassika uslublariga to'xtalдим. Zamonaviylik hamda klassika uyg'unligi loyihamni mustahkam bo'lishida va chiroyli ko'rinish kasb etishida,shuningdek, eng asosiysi iqtisodiy tejamkorlikni inobatga olgan holda loyihalashimda yordam berdi. Bu Loyihachilar uyi majmuamda arxitektor va quruvchi mutaxassislar zamonaviy talablarga javob beradigan qulay ish joyida,ya'ni alohida binoda faoliyat ko'rsatishlari, erkin ijod qilishlari uchun yetarlicha sharoitlar yaratilgan. Masalan,kirish joyi hisoblangan fayening zamonaviy uslubda loyihalanishining o'ziyoq nafaqat arxitektorni, balki kelgan

mijozlarning kayfiyatini chog' qiladi. Arxitektor mutaxassisga zamon talablari asosida loyihalangan qulay ish o'rni uni kun bo'yi ijod qilishiga undaydi. Loyihalayotgan majmuamning tarkiblariga alohida to'xtaladigan bo'lsak, bosh arxitektor xonasi diqqatga sazovordir. Bu xona boshqa xonalardan farqli o'laroq, qulay va shinam bo'lishi kerak, chunki bosh arxitektor asosiy masalalar yechimini topuvchi asosiy xodim hisoblanadi. Shuningdek, loyihachilar xonasi ham zamon talabiga to'liq javob berishi, arxitektor xodimlarning faoliyat ko'rsatishlariga qulay bo'lishi, ijod qilishlariga xalaqit beradigan holatlar ro'y bermasligi lozim, ya'ni xona zamonaviy jihozlar bilan jihozlangan bo'lishi, ya'ni kulman, taburetki, qulay stol va stullar, yoritgichlar, zamonaviy kompyuterlar(printer,plotter) kabi bir qancha jihozlar bo'lishi kerak.

Majmuamda alohida ahamiyat kasb etgan, kishi diqqatini beixtiyor o'ziga tortgan bo'lim-bu ko'rgazmalar zali hisoblanib, bu yerda qilingan arxitekturaviy ishlar ko'rgazma uchun taqdim etiladi. Ko'rgazmani tomosha qilish uchun tashrif buyurgan loyiha tashkiloti xodimlari qilingan ishlarni ko'rib o'zaro fikr almashadilar, kamchiliklarni hamda yutuqlarni o'rtaga tashlaydi va endi loyihalaniishi ko'zda tutilayotgan majmualar yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bemalol ifodalab o'tishlari mumkin. Ko'rgazma zali majmuamda eng ahamiyatga molik qism hisoblanib, uning balandligi 2 qavat balandligida loyihaladim, chunki uning tom qismi metall va shisha materialidan qoplangan tabiiy yorug'lik bilan yoritilgan. Ko'rgazmalar zalida majmualarning maketlari, stendlar, chizma doskalari saqlanadi. Majlislar zali zamonaviy texnik jihozlar bilan jihozlangan. Qulay stol,stullar joylashtirilgan. Kun bo'yi ijod qilib charchagan mutaxassis, ishchi-xodimlar dam olish xonasida dam olishlari mumkin. U joyda televizor bo'lib, tomosha qilishlari yoki shaxmat, shashka o'ynab dam olishlari mumkin. Bu majmuada ovqat tayyorlash zali ham mavjud bo'lib, xodimlar uchun ovqat tayyorlanadi. 20 kishiga mo'ljallangan Anjomlar

xonasida ham zarur anjomlar saqlanadi. Idish yuvish xonasida esa idishlar yuviladi.

Har qanday majmuani loyihalayotgan paytda nafaqat uning ichki tarkibiga, balki uning tashqi ko'rinishiga ham alohida e'tibor berish kerak. Chunki arxitekturaning muhim qonunlaridan biri hisoblangan majmuamning tashqi ko'rinishi, uning saviyasini, bir qarashda uning qanday bino ekanligini aniqlab olishimizda muhim omillardan biri sanaladi. Binoning poydevor qismi lentasimon bo'lib, binoning mustahkamligini belgilashda asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Majmuamning devori pishiq g'ishtdan qilingan. Pishiq g'ishtdan qilinganining sababi shuki, Q.M.Q qoidalariga asoslanib, binoni qishning qattiq sovug'idan, yozning jazirasidan asosiy himoya konstruksiyasi hisoblanadi. Binoning kirish darvozasi, xonalarda eshiklar, derazalari zamonaviy "Ekopen" plastik romlaridan foydalandim va bu materialni tanlaganining o'zi ham binoning tashqi chiroyini bezashda muhim rol o'ynaydi. Bu romlarning afzalligi shundan iboratki, tashqaridagi shovqinni ichkariga o'tkazmaydi hamda xonalardagi havo haroratini bir xil me'yorda ushlab turishida muhim ahamiyat kasb etadi. Binoning tom qismi tekis bo'lib, asosan, kirish joyi hamda ko'rgazmalar zalining tom qismi piramida shaklida metall konstruksiya bilan qoplangan. Majmuaning tashqi devorlari ohakli qorishma bilan suvoq ishlari olib borilgan. Bu bino tashqi devorlari yuzasini tekis holatga keltirishda asosiy vazifani bajaradi. Majmuani bezash uchun tarz qismiga travitin toshlardan foydalanildi. Bu majmuamni zamonaviy ko'rinish kasb etishida yordam beradi. Binoning karniz qismi Alipan materiali bilan bezak ishlari olib borilib, bu ham bino tashqi ko'rinishida asosiy ko'rsatkich sanaladi.

Bino peshtoq qismining bezagi sifatida binoning asosiy kirish qismi tepasida Yunon-Rim Korinf orderining arxivtrav qismini bezak sifatida tanladim. Peshtoq prizma shaklida bo'lib, bu piramida shakliga uyg'un holda kompozitsion

yechimni vujudga keltirishga harakat qildim. Bino old qismiga klassika uslubini eslatib turadigan gipsdan ishlangan kariatida haykallarini loyihaladim. Binoga badiiy bezak sifatida bra yoritgichlari o'rnatilib, bu ham binoga o'zgacha ko'rk baxsh etadi. Favvora kichik arxitekturaviy shakli ham binoning old qismiga loyihalanib, yoz faslida salqin havo muhitini yaratishda yordam beradi. Majmuamning bosh rejasi Istiqlol ko'chasining shimoliy-sharq tomonida joylashgan bo'lib, tabiiy yorug'lik tushishi qulay bo'lishi uchun oval va to'g'ri chiziq tutashmasi shaklida loyihaladim. Bosh rejamda ko'kalamzor maydon, dam olish qismi, avtomobillar to'xtash joyi, asosiy loyihalanayotgan majmuam kabi bir qancha bino va inshootlar tarkib topgan. Bosh rejada majmuamning asosiy kirish qismidan tashqari, yana bitta kirish qismini loyihaladim. Bu majmuamning hovli tomoniga kirib chiqishni ta'minlaydi. Bunday loyihalashimga sabab evakuatsiya paytida ishchi-xizmatchilarni evakuatsiya qilish vazifasini bajaradi. Hovlida dam olish joyini loyihaladim, bu esa mutaxassis xodimlarning ishdan charchagan paytlarda yordam beradi. Dam olish joyining oldiga hovuz loyihaladim. Hovuz loyihalashimdan asosiy ko'zlangan maqsad majmuamda yong'in chiqqan paytida rezervuar, ya'ni suv ombori vazifasini o'taydi. Hovlida ayollar va erkaklar uchun alohida hojatxona loyihaladim.

#### Sanitariya- gigiyena talablari:

Loyiha uyi majmuasi binosida qulay sanitariya- gigiyena sharoitlari yaratilgan bo'lib, ishchilar va mehmonlar ovqatlanishi uchun xonalar loyihalangan. Loyiha uyi majmuasi va unga tegishli bo'lgan xonalar, xizmat ko'rsatish xonalari yetarli darajada yoritilgan, insolyatsiya va shamollatish imkoniyatlari bilan ta'minlangan. Asosiy xonalar yelvizak qilib shamollatish yo'laklar orqali amalga oshiriladi.

#### Yong'inga qarshi talablar:

Yong`inga qarshi talablarga amal qilishni va evakuatsiya talablarini bajarilishini loyiha uyi majmuasini loyihalashda asosiy vazifalardan biridir. Yong`inga qarshi talablar ham konstruktiv, ham rejalashtirish yo`li bilan amalga oshirilgan. BU talablar binoning yong`inga chidamlilik darajasiga qarab belgilanadi.

Barcha ko`ndalang kommunikatsiyalar tizimi evakuatsiya yo`llari sxemasini tashkil etadi. Binodan chiqish vaqti oddiy holatlarda 10-15 minutni, favqulodda holatlarda 2-3 minutni tashkil etishi lozim.

Loyiha uyi majmuasini loyihalashda yong`inga qarshi talablarga qat`iy rioya qilinadi.

Binodan evakuatsion chiqish yo`llari 3 ta bo`lib barcha talablarga to`la javob beradi.

Jamoat binolarini loyihalashda bir qator iqtisodiy talablarni e`tiborga olish zarur loyihalashda iloji boricha tayyor, yig`ma konstruktiv elementlardan foydalanilgan. Loyiha qurilish me`yorlari va qoidalari (QMN) asosida bajarilgan.

Evakuatsion chiqish yo`llari odamlar soni va oqimini hisobga olgan holda bino bo`ylab teng taqsimlangan. ko`kalamzor qilingan.